


## NAMANGAN VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar- aprel)


Viloyat bo`yicha 2019 yilning yanvar- aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2989,2 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 6,9 foizga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 352,3 mlrd. so`mni (o`shish sur`ati 62,8 foiz), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 2636,9 mlrd.so`mni (o`shish sur`ati 2,2 foiz) hamda uyushmagan savdoda tovar aylanmasi 293,7 mlrd.so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 5,4 foizga kamaygan) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so`m)




O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Uchqo'rg'on, Chortoq, Chust, va To'raqo'rg'on tumanlarida qayd etildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari (foizda)**




**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi (foizda)**

2018 yil  
yanvar- aprel



2019 yil  
yanvar- aprel



■ Yirik korxonalar  
■ Kichik tadbirkorlik

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalar  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	<b>Yirik korxonalar</b> (mln.so`m)	<b>O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</b>	<b>Kichik tadbirkorlik</b> (mln.so`m)	<b>O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</b>
<b>Namangan viloyati</b>	<b>352329,8</b>	<b>162,8</b>	<b>2636896,5</b>	<b>102,2</b>
Namangan.sh	140932,3	129,2	1213668,1	102,2
<i>tumanlar:</i>				
Mingbuloq	222,1	80,4	59547,0	101,9
Kosonsoy	490,5	86,2	136405,3	103,0
Namangan	940,6	523,1	95713,2	102,1
Norin	6127,8	89,2	208235,1	102,5
Pop	23563,3	139,5	128030,1	102,4
To`raqo`rg`on	22362,5	216,8	173712,6	102,4
Uychi	312,4	106,4	114488,2	102,3
Uchqo`rg`on	37551,9	395,0	104497,8	102,2
Chortoq	28694,6	1151,1	118842,6	102,3
Chust	88928,0	178,7	139223,4	101,7
Yangiqo`rg`on	2203,6	21,6	144533,4	101,8

**Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (foizda)**



Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar- aprel oylarida o'tgan yilga nisbatan Viloyatmizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Namangan shahri (2208,3 ming.so`m), Norin (1335,6 ming.so`m) va To'raqo'rg'on (886,8 ming. so`m) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Mingbuloq (484,7 ming.so`m), Uychi (551,7 ming.so`m), Namangan (552,3 ming.so`m) va Kosonsoy (670,1 ming.so`m) tumanlarida qayd etilgan.

2019 yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 1083,8 ming so`mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,8 foizga ko'paygan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>1083,8</b>	<b>104,8</b>
Namangan.sh	2208,3	102,4
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	484,7	99,8
Kosonsoy	670,1	100,8
Namangan	552,3	100,7
Norin	1335,6	100,2
Pop	703,8	104,9
To`raqo`rg`on	886,8	106,8
Uychi	551,7	100,2
Uchqo`rg`on	843,0	124,7
Chortoq	756,6	121,9
Chust	876,8	120,0
Yangiqo`rg`on	688,3	94,5

2019 yilning yanvar- aprel oylarida o`tgan davri mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,4 foizni tashkil etib, 41,5 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning yanvar oylariga nisbatan 16,5 foizga o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 85,9 foiz ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

## NAMANGAN VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar- aprel)


Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 830,0 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 17,0 foizga ko'paydi

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar- aprel oylari yakunlariga ko'ra 464,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4 % ga ko'paydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 56,0 % ni tashkil qilmoqda.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>830011,1</b>	<b>117,0</b>	<b>365509,5</b>	<b>148,2</b>	<b>464501,6</b>	<b>100,4</b>
Namangan.sh	398227,5	108,5	190022,9	134,5	208204,6	92,2
tumanlar:						
Mingbuloq	2883,8	92,1	114,8	57,1	2769,0	94,4
Kosonsoy	6618,9	93,7	96,1	36,1	6522,8	96,0
Namangan	20807,2	112,8	207,9	75,6	20599,3	113,4
Norin	1258,3	94,6	4,0	10,9	1254,3	97,0
Pop	9594,0	105,6	116,9	90,0	9477,0	105,8
To'raqo'rg'on	245742,5	147,5	156010,5	192,7	89732,0	104,7
Uychi	21684,6	116,6	18,8	38,4	21665,8	116,9
Uchqo'rg'on	10644,5	106,6	109,4	10,8	10535,1	117,4
Chortoq	55317,9	118,7	5139,5	0,0	50178,4	107,6
Chust	22612,8	74,0	13668,7	60,8	8944,2	110,6
Yangiqo'rg'on	34619,1	111,7	0,0	0,0	34619,1	111,7

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining  
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari (foizda)**



Ulgurji tovar aylanmasi o`tgan yilning shu davriga nisbatan quyidagi hududlarning o`shish sur`ati kuzatildi: To'raqo'rg'on - 147,5% va Chortoq - 118,7% tumanlarda ko`paydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.:71-230-84-89